

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“MAHBUB UL-QULUB”DA HUQUQIY ONG VA ADOLAT TUSHUNCHASI

Gulchehra Xo‘janova

*TDYuU qoshidagi akademiy litsey kafedra mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya: *Alisher Navoiy asarlarida inson taqdiri bosh mavzulardan bo‘lgan. Shoirning huquqiy qarashlari va insoniy munosabatlar haqidagi tajribalari mavzuni yoritishda mukammallik va osonlik tug‘dirgan. Maqolada, asosan, “Mahbub ul-qulub” asari misolida huquqiy ong va adolat mavzusi ochib berishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *huquq, ong, adolat, axloq, tanbeh, qozi, huquqshunos, jamiyat, shaxsiyat.*

Аннотация: *Судьба человека была одной из главных тем в творчестве Алишера Навои. Юридические взгляды и переживания поэта о человеческих отношениях породили совершенство и легкость в освещении темы. В статье была предпринята попытка раскрыть тему правосознания и правосудия, в основном на примере произведения “Махбуб уль-Кулуб”.*

Ключевые слова: *право, сознание, справедливость, мораль, выговор, судья, юрист, общество, личность.*

Annotation: *In the works of Alisher Navoi, the fate of man was one of the main themes. The poet's legal views and experiences of human relations have given rise to excellence and ease in covering the subject. The article tried to reveal the topic of legal consciousness and justice, mainly on the example of the work “Mahbub ul-qulub”.*

Key words: *law, consciousness, justice, morality, reproach, judge, lawyer, society, personality.*

Insonning ta’lim-tarbiyasini oshirish, estetik zavqini tarbiyalash adabiyotning maqsadi ekanligi ma’lum. Shuningdek, insonning huquqiy ongini shakllantirish, rivojlantirish va adolat tuyg‘usini paydo qilishda ham adabiyotning xizmati beqiyos. Huquq va adabiyot masalasi bugun o‘zbek adabiyotshunosligida ham dolzarb mavzulardan sanaladi. Chunki G‘arb va Sharq adabiyotida eng sara adabiyot namunalari huquqshunos adiblar tomonidan yozilgani sir emas. Bu asarlar jamiyatning ma’naviy-moddiy jihatdan o‘zgarishga uchrashiga turtki bo‘lgan. Dunyo siyosiy, moddiy, ma’naviy evrilishga yuz tutishida adabiyot har doim o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Turkiy adabiyotda ham bu masala Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” kabi ilk dostonlardayoq aks etgan. Mutafakkir Alisher Navoiy esa turkiy adabiyotni har tomonlama yuksaltirish barobarida yoshlar tarbiyasi, jumladan, jamiyatdagi insonlarning haq-huquqlarini yoritishda ham tengsiz mahoratini ko‘rsatdi. Ayniqsa, shoirning umr so‘ngida yozilgan “Mahbub ul-qulub” asarida ijtimoiy munosabatlar, nafs tarbiyasi masalasi teranroq ko‘rsatilgan. Akademik Shuhrat Sirojiddinov ta’kidlaganidek: “Ko‘rinib turibdiki, bu asar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan insonlarga, nazarimda, ko‘proq yoshlarga atab yozilgan. Toki, deydi Navoiy, ular jamiyat ichidagi barcha toifa va

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tabaqalarda uchraydigan fazilat va qusurlardan ogoh bo‘lsinlar, kimga ergashish masalasida adashmasinlar” [2:4]. Ushbu asar nafaqat yoshlar, balki butun insoniyatning tajriba maktabidir. Bu asar orqali inson, avvalo, o‘zligini taniydi. So‘ngra, Yaratuvchi vva butn borliq haqida muushohada etadi.

“Mahbub ul-qulub” uch qismdan iborat o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Kishilik jamiyati ma’naviy dunyoqarashi, e’tiqodi va moddiy ahvoliga ko‘ra turli toifalardan tashkil topgan. Asarning birinchi qismida Navoiy alohida fasllarda insonlarni tanishtiradi, ular bilan munosabat qilish yo‘l-yo‘riqlaridan saboq beradi. Asarning muqaddimasida muallif o‘z maqsadini shunday bayon qiladi: “Bu muqaddimotdin maqsud bukim, har ko‘y va ko‘chada yugurubmen va olam ahlidin har nav’ elga o‘zumni yetkurubmen va yaxshi-yamonning af‘olin bilibmen va yamonu yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin no‘sh va nish ko‘ksunga yetibdur va laim va karim zahm va marhamin ko‘nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin ba’zi as‘hob va davron xaylidin bayozi ahbobki, bu hollardin xabarsiz va ko‘ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur.

Qit‘a:

Ne bilgay ul kishikim, shahdu mayni totmaydur

Ki, vaslu hajr ki bi ul chuchuk durur, bu achig‘.

Bilur zalil musofirki, po‘ya aylarda erur

Qumu to‘zong yumshog‘, tog‘u xoradur qatig‘” [1:9].

Alisher Navoiy o‘zining achchiq tajribalaridan xabardor qilishni, undan umr yo‘llarida foydalanishlarini istashini o‘ziyoq asar mohiyatini belgilaydi. Odamlarning munosib suhbatdoshlar topishiga, nomunosib odamlar bilan aloqani uzish kerakligiga da’vat etadi. Qirq fasldan iborat ilk qismning birinchi fasli “Odil salotin zikrida” deb nomlanadi. Asarning sultonlar zikri bilan boshlanishi bejiz emas. Zero, mamlakatning tinchligi fuqarolarning osoyishtaligi shohga bog‘liq. Chunki u shoir keltirgan hadisda aytilganidek, “Bukim odil podshoh rif‘ati ta’rifdin biyikroq erur “Vulidtu fi-zamonis-sulton ul-odil” andin xabar berur. Odil podshoh Haq taolodin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qaro tufrog‘din gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda” [1:45]. Shoir shoh haqida gapirar ekan, albatta, Allohning yerdagi soyasi bo‘lishini podshohlarning odil va oqilligi bilan belgilaydi. Qolgan barcha toifa xalqning adolati sultonning odilligidan boshlanadi. Navoiy ham: “Shohg‘a har kimki, mulozim va tobi’ bo‘lg‘ay, ishi va tavri shoh ishig‘a mushobih voqe’ bo‘lg‘ay. Agar shohg‘a adolat shior, ulusi shiorida ham adolatdin osor. Agar shohg‘a zulmpesha – elida ham

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

zulmidin andesha”, – deya shu mulohazani o‘rtaga tashlaydi. Shohga tobe shaxslar xuddi shohdek tadbir qilishi, ularning amallarida sultonning amri farmoni, uning xatti-harakati asos bo‘lishi ham haqiqatdir. Navoiy asarlarida adolat, haqiqat, iymon kabi oliy muqaddas tushunchalar ma’rifat yog‘dusi bilan bog‘lanadi. Bu kabi ilohiy hislarning mavjudligi insonning ma’rifatidan darak beradi. “Mahbub ul-qulub”da ham ma’rifat va jaholat yonma-yon ta’riflanadi. Uning shoh haqidagi qarashlarida ham oqil va johil, odil va fosiq sulton qarshilantiriladi. Navoiy genial shoir bo‘lish bilan birga yetuk siyosiy arbob ham edi. U adolatsizlikka qarshi o‘z asarlarida ham kurashgan. Uning qat’iyati, jasorati fikr-qarashlarida yorqin ko‘rinadi. Masalan, insofsiz vazirlar haqida to‘xtalarkan: “Bu ikki xayldin har biri bir af‘i, shohg‘a vojibdur bularning daf‘i. Bular, jumlasi chiyonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar. Kilklari no‘gi aqrab nishi, raiyat jonig‘a ul nish tashvishi. Necha bu nish mazlumlarg‘a sanchilg‘ay, umid ulki, boshlari ajal toshi bila yanchilg‘ay”, – deydi. Alisher Navoiy har doim haqli jazo tarafdori bo‘lgan. Bunday jazolar ko‘plab yomonliklarning oldini olishi muqarrardir. Shoir davrida mamlakatda qonun himoyachilari qozilar edi. Ular davlatda tartib-intizomni boshqaruvchi shaxslar sanalgan. Jinoyatlarga jazolarni ular chiqarar, shu bilan adolat ta’minlanardi. Asarning o‘n ikkinchi fasli maxsus qozilarga bag‘ishlangan. “Quzot zikrida” fasli quyidagicha boshlanadi: “Qozi islom binosig‘a arkondur va musulmonlar xayr va sharrig‘a nofizi farmondur. Ulumi diniyadin ko‘ngli mulki ma’mur kerak va yaqiniy farosatdin xotiri jam’iyati befutur. Mayli shaxsiy zamiri kishvaridin mutavoriy va mudohana tarrori muloyamatidin sof ko‘ngli oriy. Ilmu taqvosidin ko‘ngullarda shukuh va diqqat, farosatidin bediyonatlar ko‘nglida anduh. Ko‘ngli Kalomulloh ahkomidin qaviy va hukmida muqtado ahodisi mustafaviy” [1:64]. Navoiy qozilardagi adolatsizlik sabablarini bir-bir ochib beradi. Ayniqsa, ichkilikka ruju’ quygan qozilarni qattiq qoralaydi. Navoiyning qozining xislatlari, adolatli hukm chiqarishdagi omillar to‘g‘risidagi qarashlarini bugun ham bemalol qo‘llash mumkin. Zero, Navoiy har bir maslagida odillikdan, Allohning amridan zarra qadar chekinmagan. Qozi diniy va dunyoviy bilimlarni mushtarak holda o‘rgangan va mukammal ilm sohibi bo‘lishi kerak. Navoiy bu asari bilan o‘sha davr qozilari haqida to‘laqonli tasavvur uyg‘otadi. O‘z mansabi, imtiyozlaridan foydalanuvchi poraxo‘r qozilar xususida munosabat bildiradi. Ushbu faslning mantiqiy davomi sifatida qonunshunos muftiylar haqida to‘xtaladi. Qallob muftiylar bu faslda qoralanadi. Har bir faslda shoirning adolat haqidagi qarashlari ifodasini topar ekan, natijada odillik xususidagi bilimlar shakllanadi. Asarda faqat mansabdor shaxslar haqida emas, balki barcha kasb egalari, tabaqa vakillari haqida ham odil baho beradi. Ahli nujum, savdogarlar, bezorilar, bozor kosiblari, gadolar, darveshu qalandarni ham yaqindan tanishtiradi. Ular bilan

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

munosabatda xato qilmaslik, aldanmaslik uchun ularning xos xususiyatlarini tushuntiradi. “Mahbub ul-qulub”da yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois bировlar hisobiga kun ko‘radigan, mehnat qilmaydigan, eng achinarlisi, bolalarini ham shunga o‘rgatadigan odamlar ayovsiz tanqid qilinadi: “Bukun topqonni yeb, tongla g‘amin yemay, tilab nima bermagandin shikoyatdin o‘zga so‘z demay. Vatan va maskanlari xorlig‘ vayronasi, manzil va ma‘manlari xoksorlig‘ koshonasi. Tong otqoch er va xotuni kasb uchun tarqashib, o‘g‘ul va qizlari ko‘y va ko‘chada butrashib. Har qaysi har nekim hosil qilib, oqshom barcha bir yerga yig‘ilib, topqonlarin tugatmaguncha uyqu mayliqilmay, tongla ne yegumizdur demak so‘zin bilmay. Tongla ishlari o‘tgan burung‘i kun ishi, bu ham bir ishdur agar qila olsa kishi. Bu razolat kishilik takabburidin xo‘broq va bu zalolat yaxshilik tasavvuridin marg‘ubroq”. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, insonning huquqiy ongi faqat jazoga loyiq topiladigan amallarni bilish, o‘z haq-huquqlarini tanish emas, balki o‘z qalbi va vijdoni ovozini eshitish, ularni yomonliklardan muhofaza qilish demakdir. Navoiy Yaratuvchi, otana, insonlar oldidagi burch va huquqlarni anglatarkan, qalb salomatligiga ham e’tibor qaratadi. Kelajak avlod tarbiyasida qimmatli bo‘lgan bo‘limlardan biri “Tarbiyat topib, haromnamaklik qilg‘on navkarlar zikrida” deya nomlangan 36-fasldir. Unda kelajak avlod tarbiyasida “yaxshilikka yaxshilik qaytarish” usulidan yondashiladi. Mard inson ko‘rnamak bo‘lmasligi, bировning ma‘naviy haqiga odillik bilan javob qaytarishi lozimligi ko‘rsatib beriladi. May ichishning yomon oqibatlari izohlanadi. Unday odamlar bilan huquq, qonun nuqtai nazaridan muomala qilishdan tashqari uzoq yurishni taklif etadi. Chunki ular johillardir. Navoiy adolatga, huquqni himoya qilishga ma‘rifat bilan, ilm bilan erishilishiga urg‘u beradi. Barcha asarlarida ilm-fan targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Insoniyatning saodatini ma‘rifatda ko‘rgan shoir kitobning uch qismida ham turli ko‘rinishda bu mavzuga murojaat qiladi. Asarning ikkinchi qismi nafs tarbiyasiga, xoslar, ya’ni asosan, tariqat ahliga tegishlidir. Ammo asarning 3-qismi muqaddimasida: “Haqiqatan, johillikdan badbaxtroq nima bor dunyoda? O‘ziga bino qo‘yish naqadar ahmoqlik, o‘z so‘ziga bino qo‘yish naqadar baxtsizlikdir olamdagi barcha odamlar o‘zlarini o‘zlari sevadilar va o‘z so‘zlari o‘zlariga yoqimli tuyuladi. Va bashariyat jinsidan bo‘lgan bu sifat – ularning johilligiga dalildir va bu nafslar esa baxtiyor shu da’vo bilan mashg‘uldir” [2:96], - deydi shoir. Tanbehlardan iborat ushbu qismda inson xarakteri, uning tafakkur darajasi ko‘rsatiladi. Asardagi tanbehlarning har birida Odam avlodlarining yo bir kamoli, yo bir zavolidan bahs etiladi. Tanbehlar oyat, hadis va xalq maqollari ta’sirida yaratilgan. Ammo bugungi kunda Navoiyning so‘zlari ham hikmatga aylanib ketgan. 127 ta tanbehning aksariyati insonni tafakkur qilishga undaydi. Uning huquqiy

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ongini shakllanishiga xizmat qiladi. Umuman, “Mahbub ul-qulub” asarigina emas, barcha asarlaridagi adolat tushunchasi va huquqiy ong mavzusini o‘rganish muhim. Zero, Alisher Navoiyning arbob sifatidagi tajribasi va mutufakkir hamda mutasavvif shoir o‘laroq ifoda tarzi bugungi ta’lim-tarbiya uchun ham dolzarb sanaladi. Uning asarlaridagi shoir shaxsiyati esa insoniyatga ibratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: “Sano-standart”, 2018.
3. Saidov A. Adabiyot va huquq. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.
4. Xo‘janova G. Hibat ul-haqoyiq haqiqatlari. – Toshkent. G‘afur G‘ulom, 2001.
5. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.*